



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

2001-2025-YILLAR TURK TARIXSHUNOSLIGIDA SHOHRUH MIRZO HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING YORITILISHI

Mamadaliyeva Dilnoza Ilhomjon qizi
Fargʻona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada bu davrda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar Shohruh Mirzo shaxsini faqat siyosiy faoliyati bilan cheklab qoʻymasdan, balki uning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi, diniy siyosati, madaniy-maʼrifiy faoliyati tahlil qilingan. Bundan tashqari, Temuriylar davlati taraqqiyotidagi oʻrni kabi koʻp qirrali jihatlarni qamrab olgan holda kompleks tarzda yoritgan.

Kalit soʻzlar: Bozor-i lashkar, harbiy yurishlari, taʼminot, yaso, unvonlar, din, diniy asarlar, shayxulislom, moliyaviy boshqaruv, soliqlar, shaxsiy fazilatlar, Ozarbayjonga yurishi.

ОСВЕЩЕНИЕ ЖИЗНИ И ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШАХРУХА МИРЗО В ТУРЕЦКОЙ ИСТОРИИ, 2001-2025 ГГ

Мамадалиева Дилноза Илхомжон кизи
Ферганский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В данной статье анализируется личность Шахруха Мирзы не только с точки зрения его политической деятельности, но и с точки зрения его военных походов, государственного управления, религиозной политики, а также культурной и образовательной деятельности. Кроме того, всесторонне рассматривается такой многогранный аспект, как его роль в развитии государства Тимуридов.

Ключевые слова: Базар-и-Лашкар, военные походы, снабжение, строительство, титулы, религия, религиозные работы, Шейх-уль-Ислам, финансовое управление, налоги, личные качества, поход в Азербайджан.

COVERAGE OF THE LIFE AND STATESMANSHIP OF SHAHRUH MIRZO IN TURKISH HISTORY, 2001-2025

Mamadaliyeva Dilnoza Ilhomjon qizi
Fergana State University, Master's student

Abstract

This article analyzes the personality of Shahrukh Mirza not only in terms of his political activities, but also in terms of his military campaigns, state administration, religious policy, and cultural and educational activities. In addition, it comprehensively covers such multifaceted aspects as his role in the development of the Timurid state.

Keywords: Bazar-i lashkar, military campaigns, supply, construction, titles, religion, religious works, sheikh-ul-Islam, financial management, taxes, personal qualities, campaign to Azerbaijan.

Turkiya Respublika deb eʼlon qilinishi bilan mamlakatda siyosiy boshqaruv tizimi tubdan yangilanib, respublika tuzumiga oʻtilishi nafaqat davlat boshqaruvi, balki ilm-fan va madaniyat sohalarida ham chuqur islohotlarning amalga oshirilishiga zamin yaratdi. Mazkur jarayon, ayniqsa, tarixshunoslik fanining metodologik asoslari va tadqiqot yoʻnalishlarining yangilanishida yaqqol namoyon boʻldi. Respublika davrida milliy oʻzlikni anglash, tarixiy merosni qayta baholash va turkiy xalqlarning umumiy tarixini ilmiy asosda oʻrganishga boʻlgan ehtiyoj ortib bordi. Shu munosabat bilan Turkiyada turkiy xalqlarning kelib chiqishi, davlatchilik anʼanalari va madaniy taraqqiyoti bilan bogʻliq tadqiqotlar sezilarli darajada faollashdi.

Aynan shu ilmiy muhitda temuriylar davri tarixiga, xususan, Amir Temur va uning vorislari faoliyatiga bagʻishlangan izlanishlar ham shakllana boshladi. Temuriylar davlati tarixining muhim bosqichlaridan biri sifatida Shohruh Mirzo hukmronligi alohida ilmiy qiziqish uygʻotdi. Natijada, Shohruh Mirzo davridagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy tiklanish, madaniy va ilmiy rivojlanish jarayonlarini kompleks oʻrganishga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ushbu izlanishlar, oʻz navbatida, temurshunoslik yoʻnalishining Turkiya tarixshunosligida mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanishiga

xizmat qildi hamda keyingi tadqiqotlar uchun muhim nazariy va manbashunoslik asoslarini yaratdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. 2001-yildan keyingi davrda Turkiyada tarixshunoslik fanining umumiy rivoji bilan uzviy bog'liq holda temurshunoslik yo'nalishida ham sezilarli taraqqiyot kuzatilgani ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon Amir Temur va Temuriylar davlati tarixiga oid birlamchi manbalarning turk tiliga ilmiy asosda tarjima qilinishi hamda izohlar bilan nashr etilishi, shuningdek ilgari cheklangan doirada foydalanilgan fors, arab va chig'atoy tillaridagi manbalarning ilmiy muomalaga kiritilishi bilan bog'liqdir. Bu holat tadqiqotchilar uchun yangi ilmiy imkoniyatlarni yaratdi. Jumladan, Ensar Majit, Ali Rizo Yag'li, Musa Shamil Yuksal, Mujda Elitosh kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ushbu yo'nalishning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

Shu bilan birga, jahon temurshunosligida alohida mavqega ega bo'lgan olimlar asarlarining turk tiliga tarjima qilinishi va ularning ilmiy jamoatchilik orasida keng tarqalishi mazkur sohada nazariy-metodologik yondashuvlarning boyishiga xizmat qildi.

Mazkur omillar ta'sirida Turkiyada temurshunoslik metodologiyasi yanada takomillashib, tadqiqotlarda manbashunoslik, komparativ tahlil, interdisiplinar yondashuv kabi zamonaviy ilmiy uslublar keng qo'llanila boshlandi. Natijada, Temuriylar davrining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid masalalar yanada chuqurroq va tizimli ravishda o'rganildi. Ayniqsa, Shohrux Mirzo faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar son jihatdan ko'payibgina qolmay, ularning ilmiy saviyasi va muammoviy qamrovi ham sezilarli darajada oshdi. Endilikda Shohrux Mirzo shaxsi faqat siyosiy faoliyati doirasida emas, balki uning ilm-fan, madaniyat, me'morchilik va davlat boshqaruvi sohalaridagi o'rni kompleks tarzda tahlil qilinmoqda.

Natija va muhokama. Ensar Majit "Temuriylar davlatining harbiy tashkiloti" nomli magistrlik dissertatsiyasida Shohrux Mirzoning harbiy faoliyati tarixiga batafsil to'xtalib o'tgan [2:43]. Tadqiqotda qayd etilishicha, Temuriy hukmdorlar uchun eng dolzarb muammolardan biri qamal va harbiy harakatlarning uzoq davom etishi masalasi bo'lgan. Muallifning fikricha, harbiy yurishlarning cho'zilishi nafaqat strategik jihatdan murakkabliklarni yuzaga keltirgan, balki jazolash va talon-toroj jarayonlarining ham uzayishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, qo'shinlarning begona hududlarda faoliyat yuritishi oziq-ovqat ta'minoti muammosini keskinlashtirib, ko'pincha talonchilikni majburiy choraga aylantirgan [2:92].

Ensar Majit ushbu muammoning oldini olishda Temuriylar davrida joriy etilgan "bozor-i lashkar" tizimiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, mazkur tizim qo'shin ehtiyojlarini qonuniy yo'l bilan ta'minlashga xizmat qilgan muhim institut hisoblanadi. Ya'ni, askarlarning zarur oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlari maxsus tashkil etilgan bozorlar orqali qondirilgan, natijada esa talon-toroj holatlarining oldi olingan. Muallifning ta'kidlashicha, agar qo'shin o'z hududi doirasida talonchilikka yo'l qo'ysa, qo'mondonlar islom huquqi me'yorlariga tayangan holda bunga qat'iy to'sqinlik qilganlar. Bu esa Temuriylar davlatida harbiy intizom va huquqiy me'yorlarning muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyada keltirilgan dalillardan biri sifatida Shohrux Mirzo faoliyatiga oid voqea bayon etiladi. Xususan, u 200 ming kishilik qo'shin bilan Qora Yusufga qarshi yurish qilganida, Qoraqo'yunli hukmdorining vafoti haqidagi xabarni eshitgach, Sultoniya tomon yo'l olgan. Ensar Majitning yozishicha, bu jarayonda qal'aga yashiringan aholi qo'rquv ostida bo'lgan bo'lsa-da, Shohrux Mirzo o'z qo'shiniga qat'iy ravishda talonchilikni taqiqlagan. U aholiga qo'shin o'tib ketguniga qadar qal'ada qolishni, so'ngra esa bozor tashkil etishni buyurgan. Natijada, aholi o'z mahsulotlarini sotish imkoniga ega bo'lgan va talon-torojning oldi olingan. Ensar Majit mazkur misol orqali Temuriylar davlati harbiy tizimida iqtisodiy va huquqiy mexanizmlar uyg'un holda faoliyat yuritganligini, xususan "bozor-i lashkar" tizimi orqali qo'shin ta'minoti bilan birga ijtimoiy barqarorlik ham ta'minlanganini ilmiy asosda yoritib beradi.

Ensar Majit yuqoridagi faktlar asosida Temuriylar davlati harbiy boshqaruv tizimida markaziy hokimiyatning ustuvor o'rni, harbiy ta'minotning moslashuvchanligi hamda siyosiy qarorlar qabul qilishda hukmdor irodasining hal qiluvchi ahamiyat kasb etganligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Turkiyalik temurshunos olim Ali Riza Yag'li "Temuriylar davlatida vazirlar va vazirlik instituti" nomli tadqiqotida Shohrux Mirzo davrida vazirlar va vazirlik instituti faoliyatiga to'xtalib o'tgan [4:87]. U o'zining tadqiqotida qayd etilishicha, Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Temuriylar davlatining mafkuraviy va falsafiy asoslarida muayyan transformatsiyalar yuz bergan. Muallifning ta'kidlashicha, Amir Temur davrida davlat boshqaruvi turk-chig'atoy siyosiy-an'anaviy qadriyatlarini asosida shakllangan bo'lsa, Shohrux Mirzo davrida diniy omil, xususan islomiy me'yorlar ancha ustuvor mavqega ega bo'la boshlagan. Manbalarda ayrim ulamolar tomonidan Amir Temurning "yasa"ni shariatdan ustun qo'yanlikda ayblangani qayd etilgan bo'lsa-da, Ali Riza Yag'li bu holatni mutlaq qarama-qarshilik sifatida emas, balki ikki tizimning muayyan darajadagi uyg'unligi sifatida talqin qilish lozimligini

anglatadi.

Mazkur tadqiqotda Shohrux Mirzoga nisbatan qoʻllanilgan unvonlar masalasi ham muhim indikator sifatida koʻrib chiqiladi. Xususan, unga nisbatan “sulton” unvonining berilishi uning hokimiyati diniy-legitimatsion asosga ega boʻlganini koʻrsatadi. Bundan tashqari, Temuriy manbalarda “Xoqoni said”, “amirzoda”, “bahodir”, “muiniddin” kabi unvonlarning qoʻllanilishi hukmdorning siyosiy va diniy maqomini ifodalovchi muhim terminologik vosita sifatida talqin etiladi [4:88].

Maqolada soliq yigʻimi va moliyaviy nazorat tizimi ham batafsil tahlil qilinadi. Xususan, viloyat va beklklarda faoliyat yurituvchi amirlar hamda mingboshilarning yigʻim jarayonidagi faoliyati qatʻiy nazorat ostida boʻlgan. Muallifning yozishicha, agar ular tomonidan yigʻilgan mablagʻ ortiqcha boʻlsa, bu mablagʻlar maʼlum tartib asosida taqsimlangan, yetishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda esa kamomad qoplanishi lozim boʻlgan. Shu bilan birga, belgilangan meʼyordan ortiq soliq talab qilish qatʻiyan taqiqlangan. Bundan tashqari, biror amaldorga viloyat daromadlarini boshqarish huquqi uch yil muddatga berilgan boʻlib, mazkur muddat yakunida oʻtkazilgan tekshiruv natijalariga koʻra uning faoliyati baholangan. Agar yerlar obod holda saqlangan va aholi manfaatleri taʼminlangan boʻlsa, amaldor oʻz lavozimida qolgan, aks holda esa u mansabidan chetlatilib, keyingi uch yil davomida hech qanday lavozimga tayinlanmagan.

Ali Riza Yagʻli mazkur uch yillik nazorat tizimining keyingi Temuriylar davrida ham davom etganini qayd etadi. Bu borada Shohrux Mirzo davri muhim misol sifatida keltiriladi. Jumladan, Shohrux Mirzo Balx viloyatida Feruzshoh tomonidan tayinlangan amir va vakillarning noqonuniy yoʻllar bilan boylik orttirgani haqida xabar topgan. Shundan soʻng, Feruzshoh Sayyid Imomiddinni tayinlab, undan viloyatning uch yillik moliyaviy hisobotlarini Mirzo Joʻki huzurida aniqlashtirishni talab qilgan. Sayyid Imomiddin ushbu topshiriq asosida Balx yaqinidagi Qubbat ul-Isлом hududida davlat daromadlari va moliyaviy muomalalarni mukammal hujjatlar asosida tekshirish va nazorat qilish bilan shugʻullangan.

Musa Shamil Yuksal “Temuriylarda din va davlat munosabatlari” nomli dissertatsiyasida Shohrux Mirzo shaxsiyati haqida toʻxtalib oʻtadi. Uning tadqiqotida qayd etilishicha, Amir Temurning 1405-yil 18-fevralda vafotidan soʻng uning eng kichik oʻgʻli Shohrux Mirzo Xurosonning markazi Hirotda hokimiyatni qoʻlga olib, ushbu shaharni poytaxt sifatida tanlagan va Temuriylar orasida eng uzoq muddat hukmronlik qilgan hukmdor sifatida tarixda muhim oʻrin egallagan [5:36].

Musa Shamil Yuksal Shohrux Mirzoning diniy amallarga sodiqligini alohida taʼkidlab, uning nafaqat farz ibodatlarini, balki nafl ibodatlarini ham muntazam ado etganini qayd etadi. Xususan, u Ramazon oyida roʻza tutishni hech qachon tark etmagan, shuningdek har oyning muayyan kunlarida qoʻshimcha roʻzalar tutgan. Diniy bayramlarda esa sadaqa va zakot tarqatish orqali ijtimoiy adolatni taʼminlashga intilgan. Shu bilan birga, u balogʻat yoshidan boshlab biror namozni tark etmaganligi bilan ajralib turadi.

Muallif Shohrux Mirzoning ilm-fanga, ayniqsa diniy ilmlarga boʻlgan eʼtiborini ham alohida koʻrsatib oʻtadi. U muntazam ravishda tafsir, hadis, fiqh va tarixga oid asarlarni mutolaa qilgan, ulamolar bilan ilmiy bahslar olib borgan hamda boy kutubxona toʻplagan. Masalan, 1428-yilda Barsbaydan Ibn Hajar al-Asqalanining “Sahih al-Buxoriy”ga yozgan sharhini soʻrab oldirgan, 1439-yilda esa Chaqmaq iltimosiga binoan oʻz kutubxonasidagi nodir diniy asarlarni koʻchirtirib, Qohiraga yuborgan.

Maqolada, shuningdek, Shohrux Mirzoning shaxsiy hayotidagi taqvo va axloqiy poklik masalalari ham yoritiladi. U boshqa Temuriy shahzodalar orasida uchrab turadigan ichkilik ichish va koʻngilochar mashgʻulotlardan mutlaqo yiroq boʻlgan arbob sifatida tavsiflanadi.

Ensar Majitning “Temuriylar davrida Ozarbayjon” nomli doktorlik dissertatsiyasida Shohrux Mirzoning Ozarbayjon hududiga oid harbiy yurishlari va siyosati batafsil tahlil qilinadi. Muallifning qayd etilishicha, Iskandarning siyosiy maydondan chetlatilishi va Ozarbayjon hududlarining qayta Temuriylar tasarrufiga oʻtishi Shohrux Mirzoga mintaqada oʻz hokimiyatini mustahkamlash imkonini bergan. Shu jarayondan soʻng u 1436-yil 2-mayda Arron Qorabogʻidan chiqib, Ujon tomon yoʻl olgan hamda Aras daryosidan oʻtish uchun maxsus koʻprik qurdirib, qoʻshinini shu orqali olib oʻtgan [3:221].

Ensar Majitning taʼkidlashicha, Shohrux Mirzo aynan Ujon hududida turib, “ol tamgʻali yorliq” asosida Jahonshohni Ozarbayjon hokimi etib tayinlagan. Bu tayinlov jarayonida unga urushlar oqibatida vayronaga aylangan hududni qayta tiklash, shuningdek, zulm va tartibsizliklarning oldini olish zarurligi alohida uqtirilgan.

Dissertatsiyada qayd etilishicha, Jahonshoh oʻziga bildirilgan ishonchni qadrlab, Shohrux Mirzoga sultonlarga xos tantanali ziyofatlar berib, qimmatbaho sovgʻalar taqdim etish orqali oʻz sadoqatini namoyon etgan. Shohrux Mirzo esa bunga javoban unga harbiy va moddiy yordam koʻrsatib, jumladan, 1000 kishilik qoʻshin, turli chorva va transport vositalari, qimmatbaho kiyim-kechaklar, qurollar hamda

moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlagan.

Ensar Majit mazkur voqealarni tahlil qilar ekan, Shohrux Mirzoning Ozarbayjonda nafaqat harbiy ustunlikni qo'lga kiritgani, balki mintaqada barqaror siyosiy boshqaruv tizimini shakllantirishga erishganini qayd etadi.

Turkiyalik tadqiqotchi Mujda Elitosh "Amir Temurning o'g'illari va nabiralari bilan munosabatlari" nomli magistrlik dissertatsiyasida Amir Temurning farzandlari va nabiralari bilan munosabatlariga atroflicha to'xtalib o'tadi. Muallif tadqiqotida Shohrux Mirzoning shaxsiy hayoti, siyosiy faoliyati hamda Temuriylar sulolasidagi o'rni batafsil tahlil qilinadi. Uning oilaviy muhitda shakllanishi, ayniqsa, onasi Tug'ay Terken og'aning kelib chiqishi hamda turmush o'rtog'i Gavharshodbegimning siyosiy va madaniy faoliyati bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi [1:73].

Mujda Elitosh Shohrux Mirzoning siyosiy shakllanishida Amir Temurning bevosita ta'siri katta bo'lganini qayd etadi. Xususan, u hali yoshligidanoq otasi bilan harbiy yurishlarda ishtirok etib, davlat boshqaruvi va harbiy san'at tajribasini orttirgan.

Maqolada Shohrux Mirzoning shaxsiy fazilatlarini ham tahlil qilinib, uning otasidan farqli ravishda yumshoqtabiat, bag'rikeng va tinchlikparvar xarakterga ega bo'lgani qayd etiladi. Muallifning fikricha, aynan shu jihatlardan, shuningdek, onasining nisbatan pastroq ijtimoiy mavqei uni Amir Temur tomonidan voris sifatida tanlanmasligiga sabab bo'lgan. Biroq Shohrux Mirzo keyinchalik siyosiy vaziyatdan unumli foydalangan holda 1405-yildan boshlab Temuriylar davlatida hokimiyatni qo'lga kiritib, 1447-yilgacha hukmronlik qilgan.

Mujda Elitosh Shohrux Mirzoning Amir Temur bilan munosabatlariga alohida to'xtalib, uning otasiga sodiq bo'lganini, hech qachon unga qarshi chiqmaganini va harbiy yurishlarda faol ishtirok etganini ta'kidlaydi. Natijada Amir Temur vafotidan keyin yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyatda Shohrux Mirzo taxt uchun kurashlarda ustun kelib, Temuriylar davlatining hukmdori bo'lishga muvaffaq bo'lgan. Mujda Elitosh mazkur ma'lumotlar asosida Shohrux Mirzo shaxsini Temuriylar sulolasida muhim o'rin tutgan, siyosiy barqarorlikni ta'minlagan hamda davlatning keyingi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan hukmdor sifatida tavsiflaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 2001–2025-yillar oralig'ida Turkiya tarixshunosligida Shohrux Mirzo hayoti va davlatchilik faoliyatini o'rganish izchil va tizimli rivojlanganini kuzatish mumkin. Ushbu davrda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar Shohrux Mirzo shaxsini faqat siyosiy faoliyati bilan cheklab qo'ymasdan, balki uning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi, diniy siyosati, madaniy-ma'rifiy faoliyati hamda Temuriylar davlati taraqqiyotidagi o'rni kabi ko'p qirrali jihatlarni qamrab olgan holda kompleks tarzda yoritgan.

Shu bilan birga, Temuriylar tarixiga oid birlamchi manbalar va muhim ilmiy asarlarning turk tiliga tarjima qilinishi mazkur yo'nalishda metodologik yangilanishlarga zamin yaratgan. Natijada tadqiqotchilar tomonidan manbashunoslikka asoslangan, qiyosiy va tanqidiy yondashuvlar keng qo'llanila boshlagan. Bu esa Shohrux Mirzo faoliyatining yanada chuqurroq, ilmiy asoslangan va xolisona talqin etilishiga imkon bergan. 2001–2025-yillar Turkiya tarixshunosligida Shohrux Mirzo shaxsini yangicha yondashuvlar asosida qayta baholash, uning Temuriylar davlati tarixidagi o'rni aniqlashtirish hamda mazkur davrni kompleks o'rganish bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Elitaş M. Emir Timur'un Oğulları ve Torunlarıyla İlişkisi: Yüksek Lisans Tezi. — Kastamonu Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2021. — 210 s.
2. Macit E. Timurlu Devletinin Askeri Teşkilatı: Yüksek Lisans Tezi. — Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2012. — 195 s.
3. Macit E. Timurlular Zamanında Azerbaycan: Basılmamış doktora tezi. — Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, Erzurum, 2017. — 343 s.
4. Yağlı A.R. Timurlu Devletinde Vezirler ve Vezirlik Kurumu: Doktora Tezi. — Ankara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2014. — 436 s.
5. Yüksel M.Ş. Timurlularda Din-Devlet İlişkisi. — Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2009. — 252 s.